

**Holishon AKBAROVA,**  
*Qo'qon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi*  
+998901502088  
*Filologiya fanlari doktori, prof D.Jamolidinova taqrizi asosida*

## ASQAD MUXTOR IJODIDA ILMIY TERMINLARNING BADIY-ESTETIK VAZIFALARI

Annotatsiya

Asqad Muhtoring ijodida ilmiy terminlarni monologik belgilaringin o'ziga hosligi, terminlarni sohaviy izohlari, ilmiy uslib, umumiylilik xususiyatiga ega bo'lgan terminlar, xususiylik xususiyatiga ega bo'lgan terminlar.

**Kalit so'zlar:** ilmiy uslib, obrazli tasvir, so'z va birikmalar, atamalar, nutqimizda eng ko'p qo'llaniladigan atamalar.

## ARTISTIC AND AESTHETIC FUNCTIONS OF SCIENTIFIC TERMS IN THE WORK OF ASQAD MUKHTAR

Annotatsiya

In Asqad Muhtor's oeuvre, the monological symbols of scientific terms are self-contained, the field annotations of terms, scientific uslib, terms with a common nature, terms with a characteristic of specificity.

**Key words:** scientific style, figurative image, words and combinations, terms, terms that are most commonly used in our speech.

## ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ НАУЧНЫХ ТЕРМИНОВ В ТВОРЧЕСТВЕ АСАДА МУХТАРА

Аннотация

В творчестве Асхада Мухтара спонтанно присутствуют монологические символы научных терминов, полевые толкования терминов, научный метод, термины общего характера, термины со спецификой.

**Ключевые слова:** научный стиль, образный образ, слова и сочетания, термины, термины, которые чаще всего используются в нашей речи.

**Kirish.** Ilmiy uslubda fan va taxnikaning turli tarmoqlariga oid ilmiy asarlar, darslik va o'quv qo'llanmalari yoziladi. Bu uslub aniq daliliy ma'lumotlar asosida isbotlangan ilmiy xulosalar (qidalar, ta'riflar)ga boy bo'lishi bilan boshqa uslublardan farqlanadi. Ilmiy uslub ham adabiy tilning bir ko'rinishi bo'i lib, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega:

monologik belgilari bilan boshqa uslublardan ajralib turadi;

obrazli tasvirlar bilan emas, aksincha, aniq ma'lumotlarning umumlashgan xususiyatini ta'riflash, tushunchalarga mos keladigan terminlar bilan ish ko'radi. Kitobxonning his-tuyg'usiga emas, ongiga ta'sir etadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Lingvopoetikaning stilistika, ritorika, badiiy asar tili kabi fan sohalarini tarixiy taraqqiyoti vujudga keltiradi. Bu masalalar bo'yicha g'arb filologiyasida, jumladan, tilshunosligida ko'plab izlanishlar amalga oshirilgan bo'lib, dastlab G.E.Lessing, S. Soparta, M.Birvish, R. Yakobson, B.Larin, Yu.M.Lotman, Y.Ive, L.Shitser keyinroq V.M.Jirmunskiy, G.O.Vinokur, V.Vinogradov, A.A.Potebnya, M.M.Baxtin, A.B.Checherin, O.S.Axmanova, A.A.Lippart kabilar tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarining uyg'unligi haqidagi fikrni ilgari suradilar. Ayni damda, ularning asarlarida badiiy matn tahlili jarayonida til hodisalari tahliliga alohida e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlanadi.

XX asrning o'talaridan o'zbek tilshunosligida ham lingvopoetik tadqiqotlarda yozuvchi tili va uslubi, badiiy asar tilini o'rghanishga alohida e'tibor qaratila boshlandi. I.Sulton, A.Gulomov, S.Mirzayev, L.Abdullayeva, E.Qilichev, X.Doniyorov, S.Karimov, B.Umirqulov, X.Abdurahmonov, N.Mahmudov, M.Yuldashev, G.Muhammadjonova singari o'zbek tilshunoslarning ishlardagi mazkur masala yoritilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ilmiy uslubda har bir fanning o'ziga xos atamalaridan foydalaniladi. Ilmiy uslubda so'zlar asosan o'z ma'nosida qo'llanadi. Qoida yoki ta'rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan bo'laklar, kirish so'z va birikmalar hamda qo'shma gaplardan ko'proq foydalaniladi. Ilmiy uslubda qo'shma gaplardan shunday bo'lsa, shu sababli, bunday vaqtda, shunga qaramasdan singari vositalar yordamida bog'lanuvchi ergash gapli qo'shma gaplar ko'proq ishlataladi. Sababi bunday gaplar sabab va natija hamda boshqa munosabatlarni aniq ifodalay oladi. Bog'lochisiz qo'shma galar bu uslubda kamroq ishlatalidi.

Ilmiy matn qurilishining mantiqiy izchil bo'lishi uchun unda boshlanmalar, gap qismlarini bog'lash uhun shunday qilib, shu sababli, ko'rinadiki, shu bilan birga, bundan keyin, shunga ko'ra, aytilganlarga ko'ra kabi so'z va so'z birikmalarini qo'llaniladi. Nutqimizda ko'p qo'llaniladigan birinchidan, bir tomonidan, ikkinchi tomonidan, demak, xullas shaklidagi kirish so'z va birikmalar ham yuqoridaq masadlarga xizmat qiladi.

Ilmiy uslubda fikrning aniq bir shaxs tomonidan bayon qilinayotgani sezilmaydi. Bu uslubda ko'proq fe'lning majhul nisbatidan foydalaniladi: tajriba o'tkazilgan, dalilarni keltirilga, isbotlangan.

Yuqorida ko'rib o'tilganlar ilmiy uslubning o'ziga xos lisoniy belgilardir. Bu belgilarni boshqa uslublardan farqini ko'rsatuvchi asosiy belgilardan biridir. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanganidek, ma'lum fan ishlab chiqarish sohasidagina qo'llaniladigan maxsus so'zlar terminlar sifatida qaraladi.

Atamalarning vujudga kelishi ham xalqning tarixi qadar qadimiydir. Tunyuquq, Kultegin, Bilga Hoqon singari bitiktoshlarda xalqimiz mashq'ul bo'lgan hunarlarga oid bo'lgan hunarlarga oid bo'lgan terminlarni uchratamiz. Ularni xalqimiz tomonidan yaratilgan afsonalarda, qahramonlik qo'shiqlarida ham uchratishimiz mumkin. Ularni Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asari ularning bizgacha yetib kelishida katta ahamiyatga ega. Atamalarni dastlab ikki katta guruhg'a ajratish to'g'ri bo'ladi:

Umumiylilik xususiyatiga ega bo'lgan terminlar.

Xususiylik xususiyatiga ega bo'lgan terminlar.

Umumiylilik atamalar sirasiga bir terminologik tizimning barcha yo`nalishlari uchun tushunarli bo'lgan terminlar kiradi. Masalan, sportdagi musobaqa, g'alaba, yutuq, championat, hakam atamalarini sportning barcha turlarida bema'lol qo'llash mumkin bo'ladi. Fizikaga oid jism, elektr, magnit, issiqlik, energiya singari atamalar haqida ham shu gaplarni aytish mumkin.

Hozirgi ijtimoiy – iqtisodiy va ilmiy- texnik tub o'zgarishlar davrida yangi-yangi fanlar va tushunchalar yuzaga kelmoda. Shu jumladan o'zbek tilida ham yangi tushunchalar yuzaga kelmoqda, ilgari foydalanib kelingan bir qator leksemalar yangi

ma`nolar kasb etmoqda. Shu sababdan leksikologiya, xususan, terminologiya oldida qator muhim masalalarni yechish vazifasi tuibdi.

Terminlarning shakllanishi uzoq tarixga ega. Professor N.Mahmudov terminologiya, terminshunoslik atamalarining vujudga kelish tarixi haqida quyidagi ma`lumotlarni qayd etgan: “Terminologiya so`zi Germaniyada birinchi marta professor Shyuts tomonidan 1786 yili qo`llangan. Fransiyada esa bu so`z XVIII asrda paydo bo`lgan. Ingliz tilida esa Katta Oksford lug`atidagi ma`lumotga ko`ra birinchi marta 1807 yili qayd etilgan. Rus tilshunosligida 1989 yilda muayyan bilim sohasiga oid mahsus so`zlarning jamini “terminologiya” va “terminoshunoslik” deb atash barqrorlashdi. O`zbek tilshunosligida ham “terminologiya” va “terminoshunoslik”ni shu tarzda farqli tushunchalar sifatida ajratish maqsadga muvofiqdir”.

Hozirda terminologiyaning amaliy va nazariy masalalarini yanada chuqurroq o`rganish, terminlar yaratish va ularni qo`llashni til qonuniyatlari asosida tartibga solish davlat ahamiyatidagi masalaga aylangan. Shuning uchun ona tilimizning turli terminologik tizimlarini yanada teranroq tadtqiq etish, ularni terminologiyaning xilma-xil masalalari bo`yicha atroflicha tadtqiq qilish, bugungi kunning muhim masalalaridan biridir. Respublikamiz mustaqil deb e`lon qilingandan keyin, bu sohadagi ahvol o`zgardi. Tashqi iqtisodiy aloqalar yanada rivojlanib ketdi, dunyoning juda ko`p mamlakatlari bilan xilma-xil aloqlarga keng yo`l ochildi. Buning natijasida o`zbek tilida yangi-yangi atamalarning paydo bo`lishiga sabab bo`ldi. Bu yangi atamalar sirasida iqtisodiy terminologik tizim ham o`ziga xos o`rinni egallab kelmoda.

Shu bois fan texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida iqtisodiy atamalarni ham tilshunoslik nuqtai nazaridan tadtqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Maxsus leksikaning ishlatalish doirasasi chegaralangan bo`lsa ham, til lug`at tarkibini boyitishning faol manbalaridan sanaladi. Ma`lum tartibga solinganligi, ma`lum maqsadga qaratilganligi terminlarning alohida markerlanganligini bildiradi.

“Termin” tushunchasiga yuklangan mazmun quyidagicha belgilarga asoslanadiki, bular atamalarni umumiste` moldagi so`zdan farlash uchun yetarli deb o`ylaymiz:

Termin – umumadabiy tilning maxsus vazifa bajaruvchi bir turi bo`lib ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik, bir so`z yoki birikmadir.

Termin – konkret narsa predmet ashyo, mavhum tushunhalarning maxsuslashtirilgan nomidir.

Termin uchun muayyan ta`rif - definitsiya zaruriydirki, uning yordamida tegishli tushuncha mazmunini aniqroq ifodalash, tushunchaning birini ikkinchisidan chegaralab ajratish imkonini beruvchi, ayni mahalda ma`lum tushunchani muayyan tasnifiy qatorga joylashtirishga yo`l qo`yuvchi, farqlovchi belgilarni ravshanroq ko`rsatish mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Terminologiya muayyan fanning tushunchalar tizimi bilan o`zaro munosabatda bo`lgan atamalar to`plami sifatida tushunishimiz mumkin bo`ladi. Har qanday tushunchalar sinfiga muayyan tushunchalar yig`indisi to`g`ri keladi. Terminlar rivoji fan taraqqiyoti bilan uzviy bog`liq. Terminlar umumiste` moldagi so`zlardan farqli ravishda qo`llanilib, ulardan foydalanish ma`lum darajada nazoratda bo`ladi. Terminlar o`zlaricha “paydo bo`lib qolmaydi”, aksincha, ularga bo`lgan zarurat yuzasidan “ijod qilinadi”, “o`ylab topiladi”. Masalan, bo`lajak iqtisodchining yozma yoki og`zaki nutqida kliring, tovar oboroti, birja, renta, sarmoya kiritish kabi tor doiradagina qo`llaniladigan terminlardan foydalanish tabiiy holdir. Bu kabi terminlar iqtisodiyot sohasidan uzoqroq kasb egasi foydalanmasligi barchamizga ayon. Ayni damda iqtisodiyot sohasining bir qator terminlari borki, ular umumistemoldagi so`zlar qatorida birdek qo`llanilaveradi: bozor, mol, tadbirkor, biznes, savdo-sotiq, pul, xaridor kabilar shular jumlasidandir.

Har bir tilning lug`at tarkibi, xususan, terminologik tizimi xalqning moddiy va ma`naviy tarixi bilan uzviy aloqador holda shakllangan va asrlar davomida boyib borgan. Shu bois ham bunday birliklarda xalqning ijtimoiy hayoti, kasb – kori, turmush tarzi, siyosiy, diniy qarashlari, urf odatlari va boshqalar o`z aksini topadi. Hozirgi kunda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida terminlarning keng qo`lamda qo`llanilayotganligi terminologik tizim birliklarini turli sohalar bilan bog`liq holda tadtqiq etish lozimligini ko`rsatadi.

Terminosistemalar ham o`z navbatida, barcha nutq uslublariga xos matnlarda qo`llanish imkoniyatiga ega til birliklari hisoblanadi.

Terminlarning asosan ilmiy uslub doirasida chegaralanganligi, bir tushunchani ifodalovchi lug`aviy birliklar ekanligi ko`plab ilmiy manbaalarda qayd etiladi. Keying yillarda tilshunoslik sohasida amalga oshirilayotgan ilmiy – tadtqiqot ishlari, jumladan, terminologiya sohasida amalga oshirilayotgan izlanishlar, terminlarning tildagi amaliy qo`llanishi bilan bog`liq uslubiy, semantik xususiyatlar tadtqiqiga bag`ishlangan ishlar bu turdagilari boshqa leksik – semantik guruhlar kabi o`ziga xos, o`rganilishi lozim bo`lgan muhim jihatlarga ega ekanligini ko`rsatmoqda.

Terminlar ma`lum maqsad asosida ongli ravishda hosil qilingan ijod mahsulidir. Terminlar umumiste`mol so`zlaridan farqli ravishda muayyan soha, kasb kishilarini tomonidan mahsus qabul qilingan hamda rasmiylashtirilgan va me`yorlashtirilgan birliklardir. Terminlar qaysi ma`noda qo`llanilishi aniqlanmaguncha, ma`lum semaga ega bo`lgan so`z hisoblanadi.

Tilshunos olim M. Mirtojiev ta`kidlaganlaridek, “har qanday so`zda (shu jumladan, terminlarda ham) ikki hil ma`no mavjud: uzial (to`g`ri) ma`no va okkazional (hosila) ma`no. Uzial ma`no so`zning semantik tarkibiga kirib, nutqdan tashqarida ham anglashiladi. Buni deyarli tilshunoslardan oladi. Masalan, Yigit so`zidan qaytmas ...”

Agar so`z ma`nosi okkazional bo`lganda edi, u o`zi qo`llagan gapdan tashqari ifoda bermas va boshqa gap tarkibida shu ma`nosi bilan namoyon bo`lmasdi. Chunki okkazional ma`no ma`lum nutqiy sharoitdan kelib chiqib ma`lum nutqdagi so`zda hosil bo`ladi. U shu nutqdagi so`zdan tashqarida yashamaydi. Masalan, Lermontovni tashlamadim hech... gapida Lermontov so`zi “Lermontovga oid asar” okkazional ma`nosida qo`llangan. Bu ma`no shu nutq sharoitidan kelib chiqib, Lermontov so`zida ifoda topgan. Uni bu so`zdan boshqa so`zda berib bo`lmaydi. Shuning uchun ham uni ko`pgina tilshunoslardan individual ma`no deb atashadi.

**Xulosa va takliflar.** Odatda bir ma`noli terminlar deb qaraluvchi terminlar ham turli matnlarda uzial va okkazional ma`nolarda qo`llana olish imkoniyatiga ega. Terminning to`g`ri ma`nosi ham matn doirasida, boshqa so`zlar bilan munosabatga kirishganda yanada aniqroq aks etadi. Ayniqsa, badiiy matn boshqa matn turlariga qaraganda o`zida til birliklarining turli hissiy – ta`siriyl, ekspressiv, semantik, funksional, uslubiy xususiyatlarini o`rganish, tahlil qilish va baholashda asosiy manbaa sanaladi. Aniq va tabiiy fanlarga oid terminlar ham badiiy matnlarda boshqa ma`nolarni ifodalab kelishi mumkin. Ayrim terminlarda voqelikka nisbatan muallif yoki qahramonning ijobji munosabati ifodalansa, ayrimlarda salbiy munosabat, piching, kinoya ifodalangan bo`ladi. Shu bois ham terminlarning lingvopoetik xususiyatlarini faqat matn tarkibida to`g`ri baholash imkoniyati mavjud. Chunki matn tarkibadagina terminning leksik birlilik sifatidagi badiiy – estetik, semantik, uslubiy, kommunikativ vazifasi o`zining to`laqonli bahosini topadi.

## ADABIYOTLAR

1. Mahmudov N. Oybek nasrida o`xshatishlarning lingvopoetikasi // O`zbek tili va adabiyoti.-1985.-6. B. 48-50.
2. Karimov S.A. o`zbek tilining badiiy uslubi: Filol. fan. d-ri.. diss. –Toshkent, 1993;
3. Rahimov A. O`zbek romani poetikasi: Filol. fan. d-ri.. diss.avtoref.-1993;
4. Tog`ayev O. Asqad Muztor romanlarida konfliktlar va xarakterlar: Filol. fan . nomz.. diss.. avtoref. – Toshkent, 1962. – 24b
5. Tog`ayev O. Asqad Muxtor. – T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. 198-b6.
6. Sayimov B. Asqad Muxtor prozasi. – T.: Fan, 1969. -198-b
7. Sharofiddiov O. Yillar va yo`llar/Adabiyotimizning yarim asri.- T.: Adabiyot va sa`at. 1967. 1-kitob. B-164-244.
8. Sharofiddinov O. Ijodning katta yo`lida . / Iste'dod jilolari.- T.: Adabiyot va san'at 1976. B – 153-182
9. Sharofiddinov O. Asqad Muxtor/ XX asr o`zbek adabiyoti tarixi. Univer. va pedag. Institatlari bakalavrлari uachun darslik.- T.: O`qituvchi, 1999.B-363-378.
10. Рахимжонов Н.К Лирическая поэма (на основе материалов узбекской поэзии). Авореф дисс канд филолог наук . 1975. 25-c
11. Rahimjonov N. Faylasufning aytganlari. // O`zbekiston madaniyati, 1978. 23-dek.
12. Rahimjonov N. Ilmiy tafakkur jilolari. – T, Fan 1961. – 64-b.